

DOSTONLARDA MILLIY QADRIYATLARNING ULUG‘LANISHI

Kaxramon Sindarov,

JDPU O‘zbek tili va adabiyoti

fakulteti o‘qituvchisi

Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsalar, erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma’rifat, haqiqat, yaxshilik, go‘zallik, moddiy va ma’naviy boyliklar, an’ana, urf-odat va boshqalar qadriyat ekanligi barchamizga ma’lumdir. Ana shunday nodir qadriyatlar o‘zbek xalq dostonlarida munosib o‘rin tutgan. “Dunyoda badiiy jihatdan mukammal, hajm jihatdan katta asarlar bor. Jahon xalqlari madaniyati xazinasidagi «Manas», «Kolevala», «Nartlar» shular jumlasidandir. O‘zbek xalqi o‘zining «Alpomish», Go‘ro‘g‘li haqidagi dostonlari bilan dunyodagi ana shunday asarli xalqlar qatoridan munosib o‘rin olgan” [3;4]. O‘zbek xalq dostonlari orasida “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlari o‘ziga xos o‘ringa ega. Qirqdan ortiq dostonlarni o‘zida mujassamlashtirgan “Ravshan” dostoni o‘zining badiiy barkamolligi bilan ajralib turadi.

Doston Go‘ro‘g‘lining maslahati bilan aka-uka Hasanxon va Avazxonlarning quda bo‘lish harakati bilan boshlanadi. Qadimdan xalqimiz orasida aka-ukani bir-biriga yaqinlashtirish maqsadida quda-andalik munosabatlari shakllangan. Bu hol bizni dostonning qadimiyligi va islom dinigacha bo‘lgan milliy qadriyatlarimiz sari yetaklaydi. Doston Ravshanning Zangar Shahriga yo‘l olishi bilan boshlanadi. Shu o‘rinda g‘oyatda ahamiyatli bo‘lgan bir lavhaga, ya’ni ota va o‘g‘il o‘rtasidagi milliy hurmat-e’tiborga, Hasanxon bilan safarga otlangan Ravshanning suhbatiga e’tiborni qaratish lozim. Hasanxon o‘g‘lidan yo‘l bo‘lsin deb so‘raganda Ravshanning javobi nafaqat ushbu dostonning, balki butun o‘zbek xalq dostonchiligining asosiy mohiyatini belgilab beradi.

*Jonim ota, aytolmayman uyalib,
Bolang ketar endi boshini olib
Jon ota, alamim ko 'pdir so 'rmagin
Bek Ravshan jo 'nadi safarga tolib (1,70).
Javob ber, otajon, yorga boraman.
Yor deyman-u nomus-orga boraman.
Ota, sendan oq fotiha tilayman
Shirvon elda Zulxumorga boraman (1,71).*

Ravshanning “Yor deyman-u, nomus-orga boraman”, - deb bergan javobi xalqimizning or-nomusli ekanligidan, yor esa bir vosita bo‘lganligidan dalolat beradi. Bu esa o‘zbek xalq dostonlariga xos bo‘lgan barqaror an’anaviy motivdir.

Ota o‘z o‘g‘lini uzoq safarga jo‘natar ekan, unga oq yo‘l tilashda ham barqaror an’analarga bo‘ysunadi. Xoh Go‘ro‘g‘li, xoh Avazxon, xoh Hasanxon bo‘lsin o‘z farzandini dastlab uzoq va sermashaqqat yo‘lga yuborishni xohlamaydi. Ularni yo‘ldan qaytarishga harakat qiladi. Bu odatiy hol. Ota o‘z farzandini bag‘rida bo‘lishini, xavf-xatardan himoya qilishini hamma vaqt istaydi, lekin hayot ham, doston syujeti ham otaning istagiga bo‘ysunmay real mantiqiy rivojlanishda davom etadi. Ota noilojlikdan farzandini olis va xatarli yo‘lga jo‘natar ekan, faqat yaxshilik va ezgulikka yo‘g‘rilgan nasihatini ayamaydi. Bu nasihat xalqimizning farzandlarini to‘g‘ri va oqillik bilan tarbiyalash yo‘lida aytadigan ezgu niyatlarning, aytimlarning hamda olqishlarning badiiy ifodasidir. Dostonda Hasanxon o‘g‘liga shunday nasihat qiladi: “— E, Ravshanjon! Axir mening uyimni motamxona qilib, meni tashlab ketar ekansan-da, - deb turib, asli mard emasmi, “Kel tavakkal-da”, - deb .. O‘zi dildorlik berib ...o‘g‘liga qarab necha yerdan timsol keltirib, nasihat qilib so‘z aytayotir:

*Eshitib ol, otang sho 'rning arzini,
Elida sarg 'aytding gulday tarzini*

*Bir qiz uchun unutmagin bizlarni,
Unutma otang ham onang qarzini! (1; 72)
Qo'lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot,
Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot!
Nasihatim yod qilib ol, yolg'izim,
Yolg'iz yursa, chang chiqarmas yaxshi ot (1; 73)*

Hasanxon polvon mard emasmi, bolasiga qarab, oq fotihani betiga tortib: Bor, bolam, manglayingni xudo ochsin! debq. Ravshanbek otasidan duo olib, otining boshini solib, yo'lga ravona bo'lib ketaverdi" (1;74). Demak, qahramon safarga otlar ekan, ota duosini olishni o'zi uchun farz deb biladi va uni xalqning farzandiga beradigan dono o'giti sifatida qabul qiladi.

Dostonning asosiy xususiyati uning didaktik ahamiyatga egaligidir. Shoir Ravshan obrazini hali yosh bo'lsa ham, hayotning achchiq-chuchuklarini totib ulgurmagan bo'lsa-da o'z sha'ni, ota-bobolari g'ururi, sig'inadigan dini, millatidan hech qachon voz kechmasligini, bu yo'lda, hatto, o'limga ham tayyorligini juda ham ta'sirli lavhalarda beriladi. Doston yakunida Ravshan dor tagiga olib borilganda ham o'z dinidan, ya'ni millat or-nomusidan voz kechmasligini aytadi, Bu hol dostonda vazirning Ravshanni o'z dinidan qaytarish maqsadida aytilgan quyidagi so'zlari bilan boshlanadi:

*"Eshitib ol vazirlarning so'zini,
Shirvon elda podsho deydi o'zini,
Agar kirsang Qoraxonning diniga,
Olib beray suluvi Xumor qizini (1; 205).*

Shunda Ravshanxon polvon vazirlarning bu gapini eshitib qahri kelib, ilonday zahri kelib: "Sen aytgan odaming men emasman, o'limdan qo'rqadigan boshqadir", - deb Shirvonning amaldorlariga qarab so'z aytib turibdi:

*Bir nechalar o‘z holini chengnamas,
Sen aytgan odaming, zolim, men emas,
Men o‘lmasam o‘z elimdan kechmayman!
Aziz boshing oyog‘imga teng emas.. (1;205).*

Bu o‘rinda eli bilan dinini muqaddas va daxlsiz, hatto o‘z hayotidan azizroq deb bilgan, o‘zbeklik g‘ururi kuchli Ravshanning o‘ziga xos qirralari aks etgan. Dostonda Ravshan obrazi o‘zbek yigitlariga xos bo‘lgan milliy mentalitetni o‘zida mujassamlashtiruvchi shaxs sifatida namoyon buladi. Ravshanga xos qat’iyat o‘z eliga va diniga bo‘lgan sadoqatida, yorni nomus o‘rnida ko‘rib, uni izlab jondan kechib safarga otlanishi kabi fazilatlarda yaqqol ko‘rinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ergash Jumanbulbul o‘g‘li. Ravshan, T.: 1941. B. 366.
2. Kuntug‘mish va Ravshan, Ravshan. - Toshkent: "Sharq", 2011. - B. 365.
3. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. (Nazariy kurs matni). T.:1999
4. <http://natlib.uz> - Alisher Navoiy nomidagi Ozbekiston Milliy kutubxonasi sayti
5. <http://referatlar.uz> -Referatlar, testlar, kitoblar va media talim sayti
6. <http://arxiv.uz> -Referatlar arxivi
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Qadriyat>